

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA ULAR BILAN
OLIB BORILADIGAN TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMI**

Botirova Sumbula To‘lqin qizi

Xalqaro innovatsion universiteti “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Tirkasheva Zulayho Sodiq qizi

Xalqaro innovatsion universiteti “Pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi

Polvanova Sadoqat Abdurayimovna

Xalqaro innovatsion universiteti “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Email: zulayhotirkasheva85@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi, ularning tarbiyasi va o‘ziga xos individual xususiyatlari psixologik tahlil qilingan.*

Shuningdek, bog‘cha yoshidagi bolalar psixologik xususiyatlarining rivojlanishida oila va bog‘cha muhitidagi tarbiya tizimi va ijtimoiy munosabatlar jarayoniga oid dolzarb masalalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *bola shaxsi, psixika, psixik jarayon, rivojlanish, ota-ona, psixik taraqqiyot, psixik yordam, shaxsiy rivojlanish, o‘yin faoliyati, maktabgacha yosh, munosabat, oila, faoliyat, motiv, psixik ta’sir.*

Аннотация: *В данной статье представлен психологический анализ психического развития детей дошкольного возраста, их воспитания и специфических индивидуальных особенностей.*

В ней также рассматриваются актуальные вопросы, связанные с процессом социальных отношений и системой воспитания в семье и дошкольном учреждении в контексте развития психологических характеристик детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: *личность ребенка, психика, экстрасенсорные процессы, развитие, родитель, развитие экстрасенсорных способностей, помощь экстрасенсов, личностное развитие, игровые занятия, дошкольный возраст, отношение, семья, деятельность, мотив, экстрасенсорное влияние.*

Kirish. Ma’lumki, bola shaxsi va uning shaxsiy psixologik xususiyatlari qandaydir tasodifiy omillarning tartibsiz ta’sir etishi natijasida emas, balki muayyan konkret omillarning qonuniy ta’sir etishi natijasida tarkib topadi. Ana shu muhim qonuniy tarzda ta’sir qiladigan omillarni ochish va isbotlash bilan bolalar psixologiyasi shug‘ullanadi. Bolalar psixologiyasi bolalar shaxsi va shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishi kabi muhim ilmiy tushuncha va natijalarni o‘rganib, har tomonlama rivojlanishga yo‘naltirilgan barkamol

shaxsni tarbiyalab yetishtirish qonuniyatlarini ochib beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va kamol topishida bir qancha omillar, jumladan irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiya va o'zining mustaqil faoliyati ta'sir etadi va ular muhim ahamiyatga ega.

Bolaning psixik taraqqiyotida ayniqsa, ta'lim va tarbiya juda katta ahamiyatga ega. Uzoq muddat davomida beriladigan ta'lim-tarbiya ishlari hozirgi vaqtda oiladagi tarbiya ishlari bilan birga qo'shib olib borilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, bolaga juda yoshlik chog'idan boshlab qat'iy dastur asosida ta'lim-tarbiya berila boshlanadi. Bola maktabgacha ta'lim muassasasida maktabda izchil suratda ta'lim va tarbiya oladi. Bunday uzoq muddatdagi maxsus ijtimoiy ta'lim va tarbiya bolaning psixik taraqqiyotiga ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun bolaning umumiy psixik taraqqiyoti ko'p jihatdan ta'lim-tarbiyaning aniq maqsadli va tizimli-izchilikda olib borilishi bilan bevosita bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydayoq ota-onalar ham o'zlari ham maktab ta'limiga tayyorlash, uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligini ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi.

Asosiy qism. Bog'cha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifatlar o'zgarishlarini inobatga olgan holda yani 3 davrga bo'lamiz. Birinchi davr 3-4 yosh kichik maktabgacha davr hisoblanadi. 4-5 yosh kichik bog'cha yoshi va 6-7 yosh o'rta maktabgacha davr yoshi hisoblanadi. Maktabgacha davrni katta bog'cha yoshiga ajratishimiz mumkin bo'ladi. Bolalar rivojlanish jarayonida o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar bilan alohida munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutiqlarni o'rganib boradi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati rivojlana boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish elementar gigiena madaniyati va mehnat malakalarini hosil qilish, nutqni o'stirish hamda ijtimoiy axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirish davri hisoblanadi. Mashhur pedagog-psixolog L.S. Vigotskiyning fikriga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayoni psixik taraqqiyot jarayoniga mos kelmaydi. Bola ijtimoiy tajribani ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtirib, rivojlanadi [1]. Demak, ta'lim-tarbiya jarayoni har doim psixik taraqqiyotdan bir qadam oldinda boradi. Ta'lim-tarbiya jarayoni bolaning psixik taraqqiyoti uchun sharoit yaratib, zamin hozirlaydi va psixik taraqqiyotni o'z ketidan ergashtirib boradi.

Inson qancha yil umr ko'rib yashashidan qat'iy nazar uning psixologik shakllanishiga maktabgacha yosh davri stimullar vazifasini bajaradi. Aynan rivojlanishning mazkur bosqichida ota-ona va tarbiyachilar tomonidan ko'rsatilgan psixologik va tarbiyaviy ta'sir keyinchalik insondagi xarakter xususiyatlarining rivojlanishiga, axloqiy sifatlarni tarkib topishiga sabab bo'lishi mumkin. Psixologik ta'sir bolaning xarakteri va xulqiga ta'sir ko'rsatish bo'lsa,

tarbiyaviy ta'sir orqali bolalarning bilish jarayonlari, qobiliyat va iste'dodini, dunyoqarashlarini o'stirishga harakat qiladilar. Bog'cha yoshidagi bolalarning yana bir muhim xususiyatlari shundaki, juda qiziquvchan bo'lishadi, qiziqqan narsasini chuqurroq bilishga tirishadi, qiziqarli mashg'uloti bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning diqqati, idroki, xotirasi kabi muhim psixik jarayonlarning rivojlanishiga hamda mustahkamlanishiga yordam beradi.

Bola predmetlar bilan muloqotga kirishar ekan, dunyoni anglay boshlaydi va bu o'z-o'zidan bilish jarayonlarini jadal rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu davrda bolada tafakkur va nutqning ham jadal rivojlanishi kuzatiladi. Bilish jarayonlari ham muvofiqlashib, o'yin faoliyati orqali unda motivatsion harakatlar ancha rivojlana boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarga xos bo'lgan "nimaga?", "qachon?", "nima uchun?", "qayerda?" kabi savollar ularning atrofdagi predmetlar va dinamikadagi hodisalarni kuzatayotganlarini va shu orqali fikr bildirayotganini angalatadi. Aynan mazkur davrdagi bolalarning yetakchi faoliyati syujetli-rolli o'yinlar bo'lgani bois ularning o'yin faoliyatida kattalarga taqlid, ota-ona va oila a'zolarining rollarini o'yin faoliyatida namoyon qilish hollari uchraydi [2]. Bolaning shaxs sifatida shakllanayotganini uning xatti-harakatlari va fe'latvori bildirib turadi. Aynan tarbiyachilarning tarbiyasi va oila muhiti ta'sirida bola o'z xohish va istaklarini ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiradi, o'zining va o'rtoqlarining xulq-atvorini baholashga ham harakat qiladi. Bunda kattalarning kitob, ertak, hikoyalar o'qib eshittirishi, bolalarga ham sodda hikoyalar tuzishlari uchun topshiriqlar berishi, sayrlarni to'g'ri tashkil qilishi, rasm chizishga, boshlang'ich o'quv faoliyatiga jalb qilishi alohida ahamiyatga egadir. Chunki aynan faoliyatni to'g'ri bajarishga yo'naltirish orqali bola shaxsida, dunyoqarashida, bilish jarayonlarida o'ziga xos taraqqiyot, ijtimoiy normalarni qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologik xususiyatlarining rivojlanishida oila va bog'cha muhitidagi to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayoni, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlari alohida ahamiyatga egadir. Bu davrda bolalar turli tushunchalarni anglashni boshlaydilar. O'yin faoliyatida, bog'chadagi turli tarbiyaviy mashg'ulotlarda irodaviy sifatlar bola xulqida namoyon bo'la boshlaydi. Bolada onglikning, dunyoqarashning o'sishi orqali o'ziga qo'yilgan talablarning mohiyatini tushuna boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali turli vaziyatlarni solishtirish va sodda xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'la boshlaydilar. Aynan bog'cha yoshi davri insondagi mavjud umumiy va shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar davridir [3].

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixik rivojlanishi va kamolotida tarbiyaviy jarayonning tizimli va izchillikda olib borilishi muhim bo'lib bunda bolalarga axloqiy va aqliy tarbiya berish bilan birga ularni irodaviy-hissiy jihatdan ham maktab ta'limiga tayyorlash tarbiyachi

faoliyatidagi ustuvor vazifa sanaladi. Shu boisdan bolalar maktab ta'limiga qadam tashlar ekanlar, ularda shaxsiy sifatlar, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari ham shakllantirilib boriladi. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar shaxsiga, uning psixologiyaga ta'sir ko'rsatish, muloqotni axloqiy mazmunda olib borish, hayotiy qiyinchiliklarni yengib olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish maktabga tayyorlash jarayonida amalga oshiriladi. Bu jarayondan asosiy maqsad, bolada axloqiy meyorlarni takomillashtirish, balki u yashayotgan ijtimoiy sharoitlarga moslashishiga yordam berish, uni o'yin faoliyatida o'qish faoliyatiga hozirlash va uning ijtimoiylashuvini faollashtirishdan iborat.

Bolalar psixik va individual xususiyatlarining rivojlanishida tarbiyachilar tomonidan to'g'ri tashkil qilingan shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi mashg'ulotlar bola psixikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularda mashg'ulotlarga qiziqishni yanada oshiradi. Bunda turli ko'rgazmalardan, qo'l-barmoqlarining nozik harakatlarini (motorikani) rivojlantiruvchi mashg'ulotlardan, masalan: plastilindan buyumlar yasash, ortiqchasini topish, turli motorik harakatli mashqlarni bajarish, taqlid usulini qo'llash orqali (nutq va eshitish tizimini rivojlanishiga yordam beruvchi) bola ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Har bir o'z kasbini yaxshi ko'rgan tarbiyachi, eng avvalo, bolalarni yaxshi ko'rsagina, ular bilan tez til topishadi va albatta, ularning ruhiy olamiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa har bir tarbiyachidan kasbiy rivojlanishni, ilg'or pedagogik tajriba o'zlashtirishni va o'z ustida muntazam ishlashni talab etadi. Hayotimizning mazmuni, kelajagimiz bo'lmish farzandlarimizning psixologik xususiyatlarini bilsak, ularga ta'limning boshlang'ich bosqichi hisoblangan bog'cha ta'limida to'g'ri ta'lim-tarbiya bersakkina kelgusida ulardan buyuk insonlar yetishib chiqishi uchun zamin yaratgan bo'lamiz.

Bog'cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida ularda paydo bo'ladigan xilma-xil ehtiyoj va qiziqishlar juda katta ahamiyatga ega. Chunki, ehtiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu harakatga undovchi, ularni ishga soluvchi stimulyator (omil) hisoblanadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning qiziqish va ehtiyojlarining namoyon bo'lishi, psixik rivojlanishlarida bog'cha muhiti va tarbiyachi juda katta rol o'ynaydi. Bog'chadagi tartib, intizom va turli-tuman ta'limiy mashg'ulotlar bolalarda yuksak ijtimoiy, intellektual, axloqiy va gigiyenik ehtiyojlarning garmonik ravishda yuzaga kelishi uchun sharoit tug'diradi. Tarbiyachi bog'chada turli mashg'ulotlar, ekskursiyalar, suhbatlar o'tkazishi, kitoblar o'qib berish orqali bolalarda markazlashgan barqaror qiziqishlarni yuzaga keltirishga harakat qilishi lozim. Bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga tirishadi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning diqqati, irodasi kabi muhim psixik jarayonlarni rivojlantirish hamda mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarda biror sohaga nisbatan barvaqt yuzaga kelgan qiziqish kelajakda ularning shu sohasini yaxshi egallashlari uchun qandaydir tayyorgarlik

rolini o‘ynaydi. Bog‘chada bolalarning birgalikda ta’lim-tarbiya olishlari, birgalikda o‘ynashlari va birgalikda ovqatlanishlari ularda birlashish tuyg‘usini yuzaga kelishi va ijtimoiylashuvda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning o‘z xatti-harakatlarini ma’lum vazifalarni bajarishga bo‘ysundira olishlari, tobora kuchayib borayotgan qiziqish va erishgan aqliy taraqqiyot darajalari ularni ma’lum ta’limiy dastur asosida tarbiyalash imkonini beradi. Bog‘chada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda mehnat faoliyatining dastlabki belgilari hamda bilimga qiziqishini tarkib toptiradi. Shuningdek, maktabgacha ta’limda bolalarning jismoniy jihatdan o‘rishlariga qanchalik e’tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy o‘rishlariga hamda psixik jarayonlarining rivojlanishiga ham e’tibor qaratiladi [4]. Bolalar maktabga chiqish arafasida bo‘ylari o‘sishi bilan bir vaqtda mustaqil harakatga ko‘proq ega bo‘la boradi va bilish jarayonlari diqqat, idrok va xotira mexanizmlari rivojlanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bola tarbiyasi eng og‘ir ijtimoiy vazifa ekanligi bois, har bir ota-ona hamda tarbiyachi bolalar tarbiyasi va uning psixik rivojlanishiga alohida e’tibor qaritishi va to‘g‘ri yondashgan holda shaxsiy va ijobiy namuna bo‘lishi zarurdir. Chunki, ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo‘yayotgan mazkur yoshdagi bolalar bilan oilada ota-ona tarbiyaviy ishni to‘g‘ri olib borib, tarbiyachi, metodistlar bilan uzviy hamkorlikda ishlab, yanada takomillashtirish yo‘llarini izlab topish orqali ularni mustaqil faoliyatini rivojlantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar/Список литературы

1. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T.va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.
2. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. -236 bet.
3. Rasulova M., Abdullayeva D., Oxunjonova S. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent. – 2003.
4. Urazbayeva D., Kalandarova M., Axmedova G. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – Toshkent: “Ilm va fan” nashriyoti, 2024. – 176 bet.